

## NAJMIDDIN KUBRO VA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJIGA QO'SHGAN HİSSASI

*Toshkent islom instituti talabasi  
Turg'unboyev Isroil*

### **Annotatsiya (O'zbekcha)**

Mazkur maqolada tasavvuf tafakkurining yirik namoyandalaridan biri — Najmuddin Kubroning hayoti, asarlari va Kubraviya tariqati orqali tasavvufiy merosga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Uning "Tavilot an-Najmiya" asaridagi ramziy tafsir uslubi va inson qalbining yuksalishiga oid qarashlari bugungi zamon uchun ham dolzarbdir.

**Kalit so'zlar (O'zbekcha):** Najmuddin Kubro, Kubraviya tariqati, tasavvuf, Tavilot an-Najmiya, ramziy tafsir, qalb pokligi, ruhiy kamolot.

### **Annotation (Inglizcha)**

This article explores the life, works, and contribution of Najmuddin Kubra to the development of Sufi thought through the foundation of the Kubrawiyya order. Special attention is given to his symbolic interpretation of the Qur'an in Tawilat an-Najmiyya and his views on spiritual purification and human perfection, which remain relevant today.

**Keywords (Inglizcha):** Najmuddin Kubra, Kubrawiyya order, Sufism, Tawilat an-Najmiyya, symbolic interpretation, purity of heart, spiritual perfection.

### **Аннотация (Ruscha)**

В данной статье рассматриваются жизнь, труды и вклад Наджмуддина Кубро в развитие суфийской мысли через основание тариката Кубравия. Особое внимание уделяется его символическому толкованию Корана в «Тавилат ан-Нажмия» и его взглядам на духовное очищение и совершенствование личности.

**Ключевые слова (Ruscha):** Наджмуддин Кубро, тарикат Кубравия, суфизм, Тавилат ан-Нажмия, символическая интерпретация, чистота сердца, духовное совершенство.

Tasavvuf islom tafakkurining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat shaxsiy axloq va ma'naviyatni, balki jamiyatning axloqiy yetukligini shakllantirishda ham katta o'rin tutgan. Bu sohada yuksak ilmiy-ma'naviy meros qoldirgan allomalardan biri — Najmuddin Kubro bo'lib, u islom dunyosida mashhur bo'lgan Kubraviya tariqatining asoschisi sifatida tanilgan. U o'zining chuqur falsafiy mulohazalari, ramziy tafsirga asoslangan Qur'on talqinlari va murshid-murid munosabatlari haqidagi qarashlari orqali tasavvufiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Najmuddin Kubro 540-hijriy, 1145-yilda Xiva shahrida dunyoga kelgan vafoti esa Xorazm poytaxti Gurganch mudofaasida qatnashib, 618- hijriy yil milodiy 1221-yili jumatul-avval oyining 10-kuni shahid bo‘ldi. Uning asli ismi Axmad ibn Umar Muhammad al-Xivakiy al-Xorazmiy bo‘lib, “Najmuddin”, “Kubro”, “Abul Jannob”, “Valiitarosh” so‘zlari bu zoti mukarramning lakab, unvon va kuniyatidir. Uning yashagan davri — musulmon dunyosida siyosiy va diniy beqarorliklar, tasavvufiy oqimlarning faol shakllanish davriga to‘g‘ri keladi. U o‘z zamonasining mashhur ulamolari bilan ilmiy muloqot qilgan, lekin ayni vaqtida ruhan mustaqil yo‘lni tanlab, mustahkam sufiylik maktabiga asos solgan.

Najmuddin Kubro tasavvufda qalbni poklash, nafsni tiyish, ilohiy nur va ruhiy tajribani asosiy mezon sifatida ilgari surdi. Uning qarashlarida inson — Alloha yetuklik sari yo‘l oluvchi mavjudot bo‘lib, bu yo‘l sabr, zikr, murojat va murshidga bo‘lgan muhabbat orqali amalga oshadi.

Najmuddin Kubro asarlari insonni jismoniy borlig‘ zulmatidan qutqarish va ziyo yo‘lariga boshlash bilan ham katta qimmatga ega. Shayxning muhim asarlari 15 tadan oshadi. Ushbu asarlarida Najmuddin Kubro tasavvufning mazmun-mohiyatini, solikni shayxi bilan odoblarini va tariqatda solik rioya qilishi lozim bo‘lgan qimmatli ma’lumotlarni va o‘zini tavsiyalarini taqdim etgan. Shu e’tibordan shayxni asarlari Kubroviyya tariqati katta ahamiyatga ega. Bu risolalar shayxni soliklarni tarbiyalashda yetuk ustoz sifatida gavdalantiradi. Uning "Tavilot an-Najmiya" asari orqali Qur‘on oyatlarini ramziy va ruhiy tafsir qilish usuli — tasavvufiy tafakkurga yangicha yondashuv olib kirdi. Bu asarda u har bir oyatga chuqur ma’naviy ma’no yuklab, uni insonning ichki holati va ruhiy yuksalishi bilan bog‘lab tushuntiradi. Bu metod hozirgacha ham tasavvufshunoslar va Qur‘on mufassirlari orasida o‘rganilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston, Eron va Turkiya qo‘lyozma xazinalarida shayxning o‘ndan ziyod qo‘lyozma asarlari saqlanmoqda.

Najmuddin Kubro tomonidan asos solingenan Kubraviya tariqati keyinchalik butun Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va hatto Turkiyaga qadar tarqaldi. Bu tariqat axloqiy poklik, ruhan yuksalish va ilmiy tafakkurni uyg‘unlashtirganligi sababli, keng doirada qabul qilindi.

Shayx Najmuddin Kubro ko‘plab muridlarga ustozlik qilganlar. U zotning tarbiyasi ostida yuksak darajaga ko‘tarilgan shogirdlari ham bor edi. Ular Majduddin Bag‘dodiy, Sa’duddin Hamaviy, Sayfiddin Boxarziy, Najmuddin Roziy, Raziuddin Ali Lolo, Bobo Kamol Jandiy, Aynuz-zamon Jamoluddin Giyliy

Najmuddin Kubro tasavvufiy tafakkurning yirik namoyandasasi sifatida o‘zining ilmiy, ma’naviy va ruhiy merosi orqali islom olamiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari va tariqati bugungi kunda ham o‘rganilmoqda, yangicha talqin qilinmoqda. Ayniqsa, inson kamoloti, qalb pokligi, ruhiy yuksalish borasidagi qarashlari hozirgi zamonaviy jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Uning merosi — faqat tarixiy

emas, balki zamonaviy axloqiy va ruhiy muammolarga ham yechim bo‘la oladigan boy manba hisoblanadi.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati**

1. Najmiddin Kubro. Tavillot an-Najmiya. Qo‘lyozma nuxsalar asosida.
  2. Azizzoda A. Tasavvuf tariqatlari va ularning tarixi. – Toshkent, 2020.
  3. Alimov R. Najmiddin Kubro va uning tariqati. – Buxoro, 2015.
  4. Zohidov H. O‘rta asr musulmon Sharqi falsafasi. – Toshkent, 2004.
  5. International Journal of Sufi Studies. Vol. 6, Issue 2.
- Ma’lumot manbalar asosida tayyorlandi